

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI



**70412201 –“DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA AUDITI”
MAGISTRATURAGA MUTAXASSISLIGIGA KIRISH BO‘YICHA
MAXSUS FANDAN SINOVLAR**

DASTURI

Toshkent – 2022

Fan bo'yicha magistraturaga kirish sinovlar dasturi Bank-moliya akademiyasi Kengashining 2022 yil « ____ » _____dagi ____ - sonli majlis bayonnomasi bilan ma'qullangan.

«TAVSIYA ETILGAN»

*«Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrası majlisida
muhokama qilingan va tavsiya etilgan*

*Kafedra mudiri _____ N.K.Rizayev
(kafedra majlisining « ____ » - sonli bayonnomasi
« ____ » _____ 2022 yil)*

Tuzuvchi:

Rizayev N.K.

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası mudiri, i.f.d., prof.

Taqrizchilar:

Ibragimov A.K.

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası professori, i.f.d.

Sholdarov D.A.

Toshkent moliya instituti “Budjet hisobi va g'aznachilik ishi”
kafedrası mudiri, i.f.f.d, dotsent.

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 yil 28 yanvardagi 2022 - 2026 Yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli, 2019 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5847-sonli Farmoni, 2021 yil 24 dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-60-sonli, 2021 yil 24 dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 824-son (2020 yil 31 dekabr) Qarorlarining asosiy qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

“Davlat moliyaviy nazorati va auditi” fanini budjet hisobi bo‘yicha bilimlarning nazariy asoslarini, budjet hisobining asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, budjet tizimi budjetlari ijrosi hisobi bo‘yicha amal qiluvchi tartiblar va tamoyillarni o‘rgatish hamda ularni amaliyotda tadbiiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat. Dasturda nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, budjet tizimi budjetlarini tuzish va ular ijrosi hisobining uslubiy asoslarini o‘rganish, budjet hisobi va hisobotiga oid ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, budjet tizimi budjetlari ijrosi hisobini tashkil etish va yuritishning o‘ziga xos xususiyatlarini anglash, davlat budjetini boshqarishda budjet hisobining ahamiyatini ochib berish tartibi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib 70412201 – “Davlat moliyaviy nazorati va auditi” magistratura mutaxassisligiga o‘qishga qabul qilinayotgan tinglovichlar quyidagi bazaviy mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari talab qilinadi.

I. FANNING ASOSIY MAVZULARI

1-MAVZU. “BUDJET HISOBI” FANIGA KIRISH, FANNING MAZMUNI, PREDMETI VA USULLARI. BUDJET HISOBINING HUQUQIY ASOSLARI

Fanning mazmuni. Fanning predmeti va ob'yekti. Budjet hisobining maqsadi va vazifalari. Budjet hisobining usullari va funksiyalari. Budjet hisobini tashkil etishning xususiyatlari. Budjet hisobining boshqa maxsus fanlar bilan aloqasi. Budjet hisobining axborot tizimlari xaqida tushuncha va ularning turlari.

Budjet hisobini tartibga solishning qonunchilik tizimi. Budjet hisobi sub'yektlari, ularning vazifalari, huquqlari va javobgarliklari. Budjet hisobi axborotlari va ulardan foydalanuvchilar. Budjet hisobi axborotlarini shakllantirishda budjet tasnifining qo'llanilishi. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari ijrosiga oid hisobotlarning mazmuni. Budjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlarining mazmuni.

2-MAVZU. BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJET HISOBINING TASHKILIY-USLUBIY JIHALTLARI

Budjet tashkilotlarida budjet hisobini tashkil qilishning maqsadi va vazifalari hamda xususiyatlari. Budjet tashkilotlarida yuritiladigan hisob hujjatlari hamda registrarlari shakllari. Budjet tashkilotlarida qo'llaniladigan hisobvaraqlar, ularni tayinlanishi va tuzilishi. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya balansi. Budjet tashkilotlarida budjet hisobining tashkiliy jihatlari. Budjet tashkilotlarida budjet hisobini tashkil etishda qo'llaniladigan axborot tizimlari.

3-MAVZU. BUDJET TASHKILOTLARIDA SMETALAR HAMDA SHTATLAR JADVALINI TUZISH, TASDIQLASH VA TAQDIM ETISH TARTIBI

Budjet tashkilotlarida smetalari tarkibi va ularni shakllantirishning xususiyatlari. Budjet tashkilotlarida shtatlar jadvali va ularni tuzishning xususiyatlari. Budjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasini tuzish tartibi va ularni ijrosi hisobi. Budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasini tuzish va ular ijrosi hisobi. Budjet tashkilotlari smetalar hamda shtatlar jadvalini tasdiqlash, ro'yxatdan o'tkazish tartibi.

4-MAVZU. BUDJET TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALAR VA NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI

Asosiy vositalar hisobini tashkil etish, uning maqsadi va vazifalari. Asosiy vositalar kirimini hisobga olish. Asosiy vositalar eskirish hisobi. Asosiy vositalarni ta'mirlash va qurilishini hisobda aks ettirish. Asosiy vositalarni qayta baholash hisobi. Asosiy vositalarni balansdan chiqarilishi hisobi. Asosiy vositalar bo'yicha analitik va sintetik hisobni tashkil etish. Asosiy vositalar hisobini yuritishda axborot tizimlaridan foydalanish.

Nomoddiy aktivlar hisobini tashkil etish, uning maqsadi va vazifalari. Nomoddiy aktivlar kirimini hisobga olish ularni baholash. Nomoddiy aktivlarni

balansdan chiqarilishi hisobi. Nomoddiy aktivlar bo'yicha analitik va sintetik hisobni tashkil etish. Nomoddiy aktivlar hisobini yuritishda axborot tizimlaridan foydalanish.

5-MAVZU. BUDJET TASHKILOTLARIDA TOVAR MODDIY ZAXIRALAR HISOBI

Budjet tashkilotlarida tovar moddiy zaxiralar hisobini tashkil etish, uning maqsadi va vazifalari hamda xususiyatlari. Tayyor mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari va ular kirimi hisobi. Tayyor mahsulotni hisobdan chiqarilishi hisobi. Boshqa tovar moddiy zaxiralar kirimini hisobga olish va ularni baholash. Boshqa tovar - moddiy zaxiralarni hisobdan chiqarilishi hisobi. Tovar moddiy zaxiralar bo'yicha analitik va sintetik hisobni tashkil etish. Tovar moddiy zaxiralar hisobini yuritishda axborot tizimlaridan foydalanish.

Budjet tashkilotlarida tovar (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishni tashkil etishning normativ-huquqiy asoslari. Budjet tashkilotlarida tovar (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi. Tovar (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxini aniqlash va hisobda aks ettirish.

6-MAVZU. BUDJET TASHKILOTLARIDA HISOB VARAQLARDAGI BUDJET MABLAG'LARI HISOBI

Budjet tashkilotlarining budjet mablag'lari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochish va yuritish tartibi. Budjet mablag'lari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini hujjatlashtirish va ularni amalga oshirish. Budjet mablag'lari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini hisobda aks ettirish. Budjet mablag'lari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini yopish tartibi.

Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar va ularning tarkibi. Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'larning shakllanishi va sarflanish yo'nalishlari. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochish va yuritish tartibi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini hujjatlashtirish va ularni amalga oshirish. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini hisobda aks ettirish.

7-MAVZU. BUDJET TASHKILOTLARIDA KASSA VA KASSA OPERATSIYALARI, MOLIYAVIY QO'YILMALAR VA BOSHQA PUL MABLAG'LARI HISOBI

Budjet tashkilotlarida kassa operatsiyalari hisobining maqsadi va vazifalari. Budjet tashkilotlarida kassa ishini tashkil etish tartibi. Kassa kirim-chiqim operatsiyalarini hujjatlashtirish. Kassa operatsiyalarini hisobda aks ettirish. Kassani inventarizatsiya qilish va natijalarni hisobga olish.

Budjet tashkilotlarida moliyaviy qo'yilmalar va boshqa pul mablag'lari hisobining maqsadi hamda vazifalari. Moliyaviy qo'yilmalar tarkibi va ularni hisobga olish. Yo'ldagi pul mablag'lari hisobi. Xorijiy valuta mablag'lari hisobi. Pul ekvevalentlari va unga tenglashtirilgan aktivlar hisobi.

8-MAVZU. BUDJET TASHKILOTLARIDA TURLI DEBITOR VA KREDITORLAR BILAN HISOBLASHUVLAR HISOBI

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari hisobini tashkil etish, uning maqsadi va vazifalari. Yuridik va moliyaviy majburiyatlarini g'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tkazish. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisoblashuvlar hisobi. Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisoblashuvlar hisobi. Budjet va budjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisoblashuvlar hisobi. Boshqa debitor va kreditorlar bilan hisoblashuvlar hisobi. Turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashuvlar hisobini yuritishda axborot tizimlaridan foydalanish.

9-MAVZU. BUDJET TASHKILOTLARIDA XODIMLAR VA STIPENDIYA OLUVCHILAR BILAN HISOBLASHUVLAR HISOBI

Xodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisoblashuvlar hisobini tashkil etishning maqsadi va vazifalari. Xodimlar bilan kamomadlarga doir hisoblashuvlar hisobi. Xodimlar bilan ijtimoiy nafaqalar bo'yicha hisoblashuvlar hisobi. Xisobdor shaxslar bilan hisoblashuvlar hisobi. Xodimlar bilan mehnat haqi to'lash bo'yicha hisoblashuvlar hisobi. Stipendiya oluvchilar bilan hisoblashuvlar hisobi. Xodimlarni ish haqidan ushlab qolinadigan haq bo'yicha hisoblashuvlar hisobi. Xodimlar va stipendiya oluvchilar bilan boshqa hisoblashuvlar hisobi. Xodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisoblashuvlar hisobini yuritishda axborot tizimlaridan foydalanish.

10-MAVZU. BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBI

Budjet tashkilotlarida moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi. Budjet mablag'lar bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar hisobi. To'lovlarni mahsus turlariga doir hisoblashuvlar bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar hisobi. Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov kontrakt mablag'lari bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar. Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar. Yakuniy moliyaviy natijalar hisobi. Moliyaviy natijalar hisobini yuritishda axborot tizimlaridan foydalanish.

11-MAVZU. BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLAR

Budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar tarkibi. Buxgalteriya balansini tuzish tartibi. Xarajatlar smetasi ijrosi haqida hisobotni tuzish tartibi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotni tuzish tartibi. Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobotni tuzish tartibi. Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar harakati to'g'risida hisobotni tuzish tartibi. Boshqa budjetdan tashqari mablag'lar harakati bo'yicha hisobotni tuzish tartibi. Joriy yilning moliyaviy natijalari to'g'risida hisobotni tuzish tartibi. Nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risida hisobotni tuzish tartibi. Moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash hamda taqdim etish tartibi. Moliyaviy hisobotlarni tuzishda axborot tizimlaridan foydalanish.

12-MAVZU. DAVLAT BUDJETI VA DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI BUDJETI DAROMADLARI IJROSI HISOBI

Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari daromadlarini ijro etish tartibi. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari daromadlari ijrosi hisobini maqsadi va vazifalari. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari daromadlari ijrosi hisobini hujjatlashtirish. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari daromadlarini hisobvaraqlar hamda hisob registrlarida aks ettirish. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari daromadlarining analitik va sintetik hisobi. Davlat budjetiva davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari daromadlari hisobini yuritishda axborot tizimlaridan foydalanish.

13-MAVZU. DAVLAT BUDJETI VA DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI BUDJETLARI XARAJATLARI IJROSI HISOBI

Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari xarajatlarini ijro etish tartibi. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari xarajatlari ijrosi hisobining maqsadi va vazifalari. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari xarajatlari ijrosini hujjatlashtirish. Davlat budjetiva davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari xarajatlarining analitik va sintetik hisobi. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari xarajatlari hisobini yuritishda axborot tizimlaridan foydalanish.

14-MAVZU. DAVLAT BUDJETI VA DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI BUDJETLAR IJROSI NATIJALARI HISOBI VA HISOBOTLAR

Davlat budjetiva davlat maqsadli jamg'armalari budjetlar ijrosi natijalarni aniqlash tartibi. Davlat budjetiva davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari ijrosi bo'yicha joriy hisobvaraqlarni yopish. Davlat budjetiva davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari ijrosi bo'yicha davriy hisobotlarni shakllantirish. Davlat budjetiva davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari ijrosi bo'yicha hisobotlarning axborot imkoniyatlari. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzishda axborot tizimlaridan foydalanish.

15-MAVZU. BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDITNING UMUMIY TAVSIFI

Budjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil etish. Budjet tashkilotlarida ichki auditning zaruriyati va uning ichki nazorat tizimidagi o'rni. Budjet tashkilotlarida ichki auditning maqsadi, vazifalari va funksiyalari. Ichki auditning taftish, moliyaviy nazorat bilan bog'liqligi va farqli jihatlari. Budjet tashkilotlarida ichki auditning huquqiy asoslari. Budjet tashkilotlarida ichki audit xizmati xodimlarining huquqlari, burchlari va majburiyatlari. Budjet tashkilotlari ichki audit xizmati xodimlarining lavozim tavsiflari, ularni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi. Budjet tashkilotlarida ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlash tizimi.

16-MAVZU. BUDJET TASHKILOTLARI BOSHQARUV TIZIMIDA ICHKI NAZORAT VA ICHKI AUDITNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Budjet tashkilotlari boshqaruv tizimida ichki nazorat va ichki auditning tutgan o‘rni hamda ahamiyati. Ichki nazoratning funksiyalari. Ichki nazoratning vazifalarini baholash, korporativ boshqaruv va ichki nazorat jarayonlari. Ichki nazorat tizimini samarali tashkil etilishi yuzasidan ichki auditning vazifalari. Ichki nazorat va ichki auditning o‘zaro bog‘liqligi. Ichki nazorat va ichki auditning axborot manbalari. Budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimini tashkil etilishi va uning shartlari. Budjet tashkilotlarida ichki nazoratni ichki audit tomonidan monitoring qilinishi. Ichki auditning tashkiliy tuzilmasi. Markazlashgan ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari. Respublika va hududiy darajada tashkil etilgan markazlashgan ichki audit xizmatlari.

17-MAVZU: BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDITNING TAMOYILLARI VA USULLARI

Budjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil etishning umumiy tamoyillari. Ichki audit usullari. Auditorlik tanlash. Nazorat jarayonida risklarni baholash va aniqlashda foydalaniladigan usullar. Budjet tashkilotlari ichki audit xizmatining xalqaro darajadagi kasbiy faoliyati va axloq kodeksi. Ichki audit xodimlarining nazorat o‘tkazish jarayonidagi tartib-intizom qoidalari va o‘z kasbiga vijdonan yondoshuvi. Ichki auditning xalqaro standartlari. Umumiy va xususiy xalqaro standartlar asosida nazorat jarayonini tashkil qilish. Budjet tashkilotlari ichki audit xizmatida xalqaro standartlardan foydalanishning xususiyatlari.

18-MAVZU: BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDITGA TAYYORGARLIK, ICHKI AUDITNI O‘TKAZISH BOSQICHLARI

Budjet tashkilotlarida ichki audit dasturi va rejasini ishlab chiqishning tashkiliy-uslubiy yondashuvlari. Umumiy rejalashtirish jarayoni va unga ta’sir etuvchi omillar. Budjet tashkilotlarida ichki auditni rejalashtirishda risklarni baholash. Budjet tashkilotlarida audit jarayonini o‘tkazishda nazorat ketma-ketligi. Ichki auditni o‘tkazish bosqichlarini belgilab olish. Rejalashtirish bosqichi. Ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish bosqichi. Auditorlik dalillarini to‘plash bosqichi. Kuzatish bosqichi. Umumiy xulosa va hisobot chiqarish hamda ijro nazorati bosqichi. Ichki audit xizmatining turdosh xizmatlari.

II. ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar

1. Tuychiyev A.J., Ostonakulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Budjet hisobi. Darslik. – T.: “IQTISOD MOLIYA” 2018. 428 b.
2. Tuychiyev A.J., Ostonakulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Budjet tashkilotlarida budjet hisobi. Darslik. – T.: “IQTISOD MOLIYA” 2019. 329

b.

3. Tuychiyev A.J., Ibragimov K.Sh. Budget hisoboti. O'quv qo'llanma. "IQTISOD MOLIYA". – T.: 2018. 254 b.

4. Hamdamov B.K. va Ostonokulov A.A. Budget nazorati. O'quv qo'llanma. "IQTISOD MOLIYA". – T.: 2018. 318 b.

5. Mehmonov S.U., Kulibayev A.Sh. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari hisobi. O'quv qo'llanma. "IQTISOD MOLIYA". – T.: 2018. 217 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 yil 28 yanvardagi 2022 — 2026 Yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", PF-60-son Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni.

8. Toshmuxamedova D.A. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2018. – 328 b.

9. Tuychiev A.J., Abidov M.I. Budget tasnifi. O'quv qo'llanma. "IQTISOD MOLIYA". – T.: 2018. 264 b.

Axborot manbaalari

10. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portal.

11. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

12. www.mf.uz–O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti.

13. www.ach.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining rasmiy sayti.

14. www.openbudget.uz– O'zbekiston Respublikasi "Ochiq budget" portal.

15. www.ipsasb.org – Davlat sektorida buxgalteriya hisobi standartlari bo'yicha xalqaro tashkilot.

